



**PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF
MILITARY SCIENCES IN HIGHER MILITARY
EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR ROLE IN
THE EDUCATIONAL PROCESS**

Mahmudov B.Kh.

Colonel, Associate Professor, Deputy Head of the Faculty of the
Tashkent Military District of the Military Academy of the Republic
of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254889>

ARTICLE INFO

Received: 25th December 2025

Accepted: 30th December 2025

Online: 31st December 2025

KEYWORDS

*Competence, patriotism, officer,
military personnel, modern
tactical operations, patriot of
the Motherland, military
service, educational process,
interactive technologies,
creative activity, knowledge,
skills.*

ABSTRACT

*The article highlights the role of the officer-instructor
in military educational institutions, the enhancement
of his professional competence, involving the tasks
and challenges, as well as the ways and mechanisms
for their resolution.*

**ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ВОЕННЫХ НАУК В ВЫСШИХ ВОЕННО-УЧЕБНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И
ИХ РОЛЬ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

Махмудов Б.Х.

Полковник, доцент, заместитель заведующего факультетом Ташкентского
военного округа Военной академии Республики Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254889>

ARTICLE INFO

Received: 25th December 2025

Accepted: 30th December 2025

Online: 31st December 2025

KEYWORDS

*Компетенция, патриот,
офицер, военный,
современные тактические
действия, патриот Родины,
военная служба, процесс
образования,
интерактивные технологии,
творческая деятельность,
знания, навыки.*

ABSTRACT

*В статье освещается роль офицера
преподавателя в военных учебных заведениях,
повышения его компетентности, задачи и
проблемы, пути и механизмы их решения.*



**OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA HARBIY FANLAR
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA ULARNI TA'LIM
JARAYONIDAGI O'RNI**

Mahmudov B.X.

Polkovnik, dotsent, O'R HXvaMU Toshkent harbiy okrug fakulteti boshlig'ining
o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18254889>

ARTICLE INFO

Received: 25th December 2025
Accepted: 30th December 2025
Online: 31st December 2025

KEYWORDS

Kompetensiya, vatanparvar, ofitser, harbiy, zamonaviy taktik xarakterlar, Vatanga sodiqlik, harbiy xizmat. ta'lim jarayoni, interfaol texnologiya, ijodiy faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Oliy harbiy ta'lim muassasalarining harbiy fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish, o'qituvchilarning oldida turgan vazifalar va muammolar, ularni hal etish mexanizmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kirish

Bugungi kunda oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni yetuk harbiy mutaxassis, vatanparvar, o'z kasbiga, vataniga sodiq bo'lib yetishishida o'qituvchining shaxsiy rivojlanganligi, mehnatsevarligi, ishchanligi, kreativligi, kompetentligi va shu bilan birga o'quv-ta'lim jarayonida interfaol metodlarni samarali qo'llay bilishi zamonaviy ta'lim jarayonining zarur talabi bo'lib qolmoqda. O'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini to'g'ri qo'llay bilish natijasi taktikasi hozirgi kunda kundan kunga o'zgarib borayotgan jangovar xarakterlarni ko'rinishlarini kursantlar o'qish jarayonida zarur ma'lumotlarni, bilimlarni o'zlari qidirib topishi, mustaqil o'rganib, izlanib tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kursantlar kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi, o'zining ijodkorligi bilan faoliyatida o'z tajribasini oshiradi, boyitadi, to'ldiradi. Bu tajribalarni kursantlar dala amaliy, gurux mashg'ulotlari, meyorlarni bajarib poligonlarda va trenajor va qurol yarog'larni qo'llagan xolda o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Ofitser shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi.

Kompetensiya (lotincha Competere - mos kelish) - bu mutaxassisning (xodimning) ma'lum bir kasbiy vazifalar sinfini hal qilishdagi shaxsiy qobiliyatidir. O'qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligi - uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetukligini baholovchi meyor. Kompetensiya - Ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish, qila olish qobiliyati bo'lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar asosida namoèn bo'ladi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanib boraётgan davrda harbiy fan o'qituvchilarining



kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi kunda zamonaviy harbiy pedagogikaning asosiy masalalardan biri bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayergarligining ulardan talab etiladigan amaliy tayergarlik darajasiga muvofiqligini ta'minlash asosida kasbiy tayergarlik mazmunini yetuk davlatlar armiyalarining tayyorgarlik darajasiga olib chiqish, zamonaviy janglar olib borish taktikasining tezkor o'zgarishlariga moslashtirish, shuningdek kasbiy, amaliy vazifalarni to'laqonli bajarish uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bugungi kunda bo'lajak ofitser o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasiga ham ilmiy ham pedagogik nuqtai nazardan yangicha endashuv zarurligini ko'rsamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyevning "O'z farzandlarini yuksak Vatandarparvarlik ruhida kamol topdira olmagan Davlat, qanday qudratli qurolga ega bo'lmasin mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi" degan so'zlaridan kelib chiqib, bugungi XXI asrning e'hsallarini, Yangi O'zbekiston farzandlarini yuksak vatandarparvarlik ruhida, o'z yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday sharaflil vazifani bajarishda o'qituvchilarning roli nihoyatda kattadir. Jumladan harbiy fan o'qituvchisining o'quvchilar qalbida Vatanga sodiqlik, yurt tarixiga va xalqimizning ezgu an'analariiga hurmat bilan qarash tuyg'ularini shakllantirish, ularni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz amal qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ular o'rtasida yurt an'analariini targ'ib qilish, harbiy xizmatga hurmat bilan qarash, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, Vatanga qasamyod va umumqo'shin nizomlarida bayon etilgan talablar ijrosiga mas'uliyat bilan yondashish fazilatlarini, intizomlilik, jasurlik, tashabbuskorlik va Vatandar himoyasiga shaylik sifatlarini tarbiyalash kabi muhim vazifa turibdi.

Demak harbiy fan o'qituvchisi oldida juda katta ma'suliyatli vazifa turgan ekan, yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega bo'lgan, o'z individual - shaxsiy, ijtimoiy xususiyatlari bilan harbiy kasb talablariga to'liq javob bera oladigan professional kadrlar bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim. Shuning uchun, bo'lajak ofitser o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda ofitser-o'qituvchilardan ularning o'zlarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursanlarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, bo'lajak ofitserlar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda ularning kasbiy tayyorgarlik jixatidan takomillashtirish darajasini oshirib borish muxim vazifadir. Harbiy fan ofitser-o'qituvchisining kasbiy kompetentligi - harbiy soha mutaxassislari tomonidan beriladigan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallashni, kasbga tegishli bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning o'zlashtirilishini nazarda tutgan holda o'z sohasi bo'yicha kasbiy bilimlarini doimo boyitib borishni, axborotlarni o'rganishni, zamon talablarni ang'lay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.



Oliy harbiy ta'lim muassasasida harbiy fan ofitser-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosi sifatida quyidagilarni qarash mumkin:

doimiy ravishda o'z ustida ishlash, bilimlarini boyitib borish;

axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib yangi axborotlarni o'zlashtirish, borlarini boyitish;

zamonaviy janglar olib borish talablarni chuqur anglab yetish;

yangi, dunyoning turli o'choqlarida bo'lib o'tayotgan, sodir etilayotgan jangovar xarakterli usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu boradagi yangi usullarni izlab topish;

zamonaviy pedagogikaning eng yangi interfaol o'qitish usullarini o'rganib borish;

zamonaviy pedagog shaxsida bo'lishi kerak bo'lgan ijobiy sifatlarga ega bo'la olish.

Harbiy fan ofitser-o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uni o'z ustida ishlashi deganda – shaxs èki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishidir. Harbiy fan bo'lajak o'qituvchisining o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi:

kasbiy bilim, kunikma va malakasini takomillashtirib borish;

faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;

kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;

ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Harbiy fan o'qituvchilarining o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Birinchidan, o'z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlash. Faoliyati davomida egallagan bilimlari, kunikmasi va malakasini tahlil qilish natijasida ya'ni o'zi bilan birga faoliyat olib boraётgan boshqa xamkasblarining faoliyati bilan solishtirib, o'zi to'g'risida o'qituvchi-ofitserlarning fikrini o'rganib o'zi erishgan yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash.

Ikkinchidan - o'zining kamchiliklarni bartaraf etish, erishgan yutuqlarini boyitish va yo'l qo'ygan kamchiliklarini bartaraf etish;

Uchinchidan - kamchiliklarini tuzatish bo'yicha amaliy harakatlarini amalga oshiradi, bilimlarini oshirib boradi, o'rganadi, o'zini ustida ishlaydi, jismoniy va jangovar, ma'naviy-ruxiy imkoniyatlarini oshirib boradi;

To'rtinchidan - xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish. ofitser-o'qituvchi o'qishi, o'rganishi davomida shuningdek, o'qituvchilik faoliyatining so'ngigacha ham yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qayta takrorlamaslikka harakat qilishi, egalagan bilimlarini doimo takrorlab turishi, yangi bilimlarni egallab, bilimlari ko'lamini kengaytirib borishi talab etiladi;

Beshinchidan - Bu bosqichda ofitser - o'qituvchi o'z faoliyati davomida o'zini-o'zi doim nazorat qilib borishi kerak. Quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi:

aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jaraènni takomillashtirish;

pedagogik jaraèn samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;

izchil ravishda yangilanib boraётgan pedagogik va harbiy bilimlarni o'zlashtirish;



ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
harbiy-kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Harbiy fan ofitser-o'qituvchisining kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham muxim ahamiyatga ega. O'zini o'zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etaётgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zini o'zi baholash – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi mohiyatiga ko'ra o'zini o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi.

O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilaётgan bahoga mos kelishi). O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarni yetuk ofitser bo'lib voyaga yetishida ofitser-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanganligi muxim ahamiyat kasb etadi, bu mavzu xozirgi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib qolayotganligi uchun, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun esa o'qituvchi ularni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Kompetent ofitser - o'qituvchi bo'lmasdan kursantlardagi ijodkorlikni rivojlantirish, ularni harbiy-boshqaruvchanlik faoliyatga tayyorlashni imkoni yo'q. Mazkur jarayonda bo'lajak ofitserlarga mavjud pedagogik innovatsiyalar, ularning xarakterli xususiyatlari, qo'llanish parametrlari, innovatsion o'qitish imkoniyatlari haqida ilmiy asoslangan axborotlar berish maqsadga muvofiqdir. Muvaffaqiyatli ijodiy muhitgina kursantlar tomonidan yangiliklarni faol o'zlashtirish va kelajakda o'z faoliyatiga tatbiq etishga o'rgatadi. Shu bilan birga ofitser - o'qituvchining oldida Vatanimiz yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek katta vazifa turibdi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak ofitserlarni o'z kasbining ustasi ya'ni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning ofitseri sifatida bilim olishi va kasbiy kompetentligini takomillashtirib borishi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

References:

1. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz / Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun qo'llanma. - T.: «Iste'dod», 2008. -180-b.
3. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: «O'qituvchi», 2000. –207-b.



4. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliёт. – T.: Universitet, 2000.-45-48-b.
5. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish./ Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.